

Andijon viloyatida chakana va ulgurji savdo tovar aylanmasi

2026- yil yanvar-aprel dastlabki ma'lumot

- I. CHAKANA SAVDO TOVAR AYLANMASI
- II. ULGURJI SAVDO TOVAR AYLANMASI
- III. UMUMIY OVQATLANISH KORXONALARI SAVDO AYLANMASI
- IV. METAMA'LUMOTLAR


I. CHAKANA SAVDO TOVAR AYLANMASI

2026-yil 1-may holatiga chakana savdo sohasida faoliyat ko'rsatayotgan tijorat korxonalari soni 5 044 tani tashkil etib, shundan, faoliyat ko'rsatayotgan yirik korxonalar soni 100 tani, kichik korxonalar va mikrofirmalar soni 4 944 tani tashkil qildi.


2026-yilning yanvar-aprel oyilarida viloyatning chakana savdo tovar aylanmasi 10 550,8 mlrd so'mni tashkil etib, 2025-yilning yanvar-aprel oyilariga nisbatan 111,2 % ga yetdi.

Jumladan, yirik korxonalarining tovar aylanmasi 1 001,8 mlrd so'mni (o'tgan yilning mos davriga nisbatan o'sish sur'ati 143,2 %), kichik biznes va xususiy tadbirkorlik sub'ektlarining tovar aylanmasi 9 549,0 mlrd so'm (o'tgan yilning mos davriga nisbatan o'sish sur'ati 108,7 %), shundan uyushmagan savdo tovar aylanmasi 2 054,6 mlrd so'mni (o'sish sur'ati 127,1 %) tashkil etdi.

Hududlar kesimida chakana savdo tovar aylanmasi o'sish sur'ati (%da)



Chakana savdo aylanmasi asosiy ko'rsatkichlari dinamikasi (ulushi foizda)



II. ULGURJI SAVDO TOVAR AYLANMASI

2026-yil 1-may holatiga ulgurji savdo sohasida faoliyat ko'rsatayotgan tijorat korxonalari soni 2 986 tani tashkil etib, shundan, faoliyat ko'rsatayotgan yirik korxonalar soni 31 tani, kichik korxonalar va mikrofirmalar soni 2 955 tani tashkil qildi.

Viloyat bo'yicha 2026-yilning yanvar-aprel oyilarida ulgurji savdo tovar aylanmasi 4 461,5 mlrd so'mni tashkil etib, 2025-yilning mos davriga nisbatan 16,7 % ga o'sdi.


Kichik biznes subektlarining ulgurji savdo aylanmasidagi umumiy hajmi 3 525,7 mlrd so'mni tashkil qilib, 2025-yilning mos davriga nisbatan o'sish sur'ati 107,1 % ga to'g'ri keldi. Viloyatda jami ulgurji savdo hajmidagi ulushi 89,3 % ni tashkil qildi.

Ulgurji savdo hajmi dinamikasi (mlrd so'm)



Ulgurji savdo tovar aylanmasida yirik korxonalarining eng yuqori o'sish sur'atiga ega hududlar Andijon (1,9 b.) shaharida va Oltinko'1 (4063,1 b.) tumanida kuzatildi.

Hududlar kesimida ulgurji savdo hajmi o'sish sur'atlari (foizda)




III. UMUMIY OVQATLANISH KORXONALARI SAVDO HAJMI

2026-yil 1-may holatiga umumiy ovqatlanish sohasida faoliyat yuritayotgan tijorat korxonalarini soni 1 311 tani tashkil etib, shundan, faoliyat ko'rsatayotgan yirik korxonalar soni 2 tani, kichik korxonalar va mikrofirmalar soni 1 309 tani tashkil qildi.

2026-yilning yanvar-aprel oyilarida ovqatlanish korxonalarining savdo aylanmasi 4 763,5 mlrd so'mga yetdi. 2025-yilning mos davriga nisbatan 105,7 % ga oshdi. Bunda savdo aylanmasining 98,6 % ulushi kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subektlari hissasiga to'g'ri keldi.

Umumiy ovqatlanish korxonalarini savdo hajmi o'sish sur'atlari (foizda)



IV. METAMA'LUMOTLAR



Ulgurji va chakana savdo tovar aylanmasi statistika ko'rsatkichlarini shakllantirishda, O'zbekiston Respublikasining me'yoriy-huquqiy hujjatlari, shuningdek, xalqaro ko'rsatmalar va tavsiyalar "Milliy hisoblar tizimi –2008", "Chakana va ulgurji savdo statistikasi bo'yicha xalqaro tavsiyalar" (BMT, 2008), Chakana tovar aylanmasining statistik kuzatuvi va uning miqdoriy ko'rsatkichini hisoblash bo'yicha uslubiy tavsiyalar hisobga olingan (MDH qo'mitasi, 2011) holda ishlatiladi.

Ulgurji va chakana savdo tovar aylanmasi statistika ko'rsatkichlarini shakllantirishda norasmiy va yashirin iqtisodiyotni statistik baholash bo'yicha o'tkazilgan kuzatuvlar natijalarini qo'shgan holda hisoblangan.

Chop etishga masul: Xizmatlar va savdo sohasi statistikasi bo'limi	Bo'lim boshlig'i: A.Abdulxapizov Tel: +998742288000 (6090)	Ijrochi: N. Usmanova Tel: +998742288000 (6041)	Manzil: 170100, Andijon sh., M.Tiklanish ko'chasi, 36-a
---	---	--	---